



MAKTABGACHA TA'LIMDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI.

Ilmiy rahbar; Xolboyeva Gulnora Ulashovna

TerDPI katta o'qituvchisi, PhD

Asadova Mohira Husan qizi *Denov Tadbirkorlik va Pedagogika instituti*

"Maktabgacha ta'lim" kafedrası 1- kurs magistranti

Email: asodovamohira@gmail.com

Annotatsiya: *Maqolada innovatsion texnologiyalardan foydalanishning ,maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'siri, ushbu jarayonda yuzaga keladigan muammolar hamda ularning yechimlari haqida fikr yuritiladi. Tadqiqod natijalari shuni ko'rsatadiki maktabgacha ta'limda innovatsion texnologiyalardan foydalanish bolalarning rivojlanishiga yordam beradigan, o'yinlar orqali bilim beradigan zamonaviy usullarni o'z ichiga oladi, bu esa ta'limni qiziqarli, samarali qiladi va ularning kelajakda o'qishiga ,mustaqil izlanishga bo'lgan qiziqishini yanada oshiradi. Innovatsion faoliyatni ta'lim jarayoniga tatbiq etish esa bolalarning qiziqishini uyg'otish, ularning bilimlarni mustaqil o'zlashtirishga bo'lgan layoqatini oshirishda muhim rol o'ynaydi.*

Kalit So'zlar; *Innovatsion faoliyat, zamonaviy usullar, o'yin texnologiyalari, STEAM, raqamli texnologiyalar, mustaqil izlanish, robototexnika, innovatsion metodlar, moliyaviy resurslar , infratuzilma.*

Аннотация: *В статье рассматривается влияние использования инновационных технологий на детей дошкольного возраста, проблемы, возникающие в этом процессе, и пути их решения . Результаты исследования показывают , что использование инновационных технологий в дошкольном образовании включает в себя современные методы, которые помогают детям развиваться, предоставляют знания в игровой форме, что делает обучение интересным , эффективным и в дальнейшем повышает их интерес к будущей учебе и самостоятельным исследованиям. Внедрение инновационных видов деятельности в образовательный процесс играет роль и пробуждении интереса детей и повышении их способности самостоятельно осваивать знания.*

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА ; *инновационные виды деятельности, современные методы, игра технологии , STEAM, Цифровые технологии, независимые исследования, робототехника, инновационные методы, финансовые ресурсы, инфраструктура.*



Abstract: *The article discusses the impact of the use of innovative technologies on preschool children, the problems that arise in this process, and their solutions. The result of the study shows that the use of innovative technologies in preschool education includes modern methods that help children develop, provide knowledge through games, which makes education interesting, effective, and further increases their interest in future learning and independent research. The implementation of innovative activities in the educational process plays an important role in arousing children's interest and increasing their ability to independently master knowledge.*

Keywords: *Innovative activities, modern methods, game technologies, STEAM, digital technologies, independent research, robotics, innovative methods, financial resources, infrastructure.*

KIRISH

Hozirgi kunda ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda, bunday bo'lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda o'quvchilarni faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, innovatsion texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishlariga o'rgatadi. Pedagog bu jarayonda shaxsni rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik funksiyasini bajaradi. Ta'lim jarayonida pedagog asosiy figuraga aylanadi. Pedagogik texnologiya va pedagog mahoratiga oid bilim, tajriba va interaktiv metodlar ta'lim oluvchilarni bilimli, yetuk malakaga ega bo'lishlarini ta'minlaydi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI.

Innovatsiya (inglizcha innovation) yangilik kiritish, yangilikdir. Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi faoliyatiga yangilik, o'zgarishlar kiritish bo'lib, uni amalga oshirishda asosan interaktiv metodlardan to'liq foydalaniladi. Interaktiv metodlar bu jamoa bo'lib fikrlash deb yuritiladi, yani pedagogik ta'sir etish usullari bo'lib talim mazmunining tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu metodlarning o'ziga xosligi shundaki, ular faqat pedagog va ta'lim oluvchilarning birgalikda faoliyat ko'rsatishi orqali amalga oshiriladi. Bunday pedagogik hamkorlik jarayoni o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ularga quyidagilar kiradi:

- ta'lim oluvchining dars davomida befarq bo'lmaslikka, mustaqil fikrlash, ijod etish va izlanishga majbur etishi;



- o'rganuvchining o'quv jarayonida bilimga bo'lgan qiziqishlarini doimiy ravishda bo'lishini taminlashi;

- ta'lim oluvchining bilimga bo'lgan qiziqishini mustaqil ravishda har bir masalaga ijodiy yondoshgan holda kuchaytirishi;

- pedagog va o'rganuvchining hamisha hamkorlikdagi faoliyatini tashkillanishi.[1]

Ta'lim jarayonida ilg'or pedagogik texnologiyalarni faol qo'llash, ta'lim samaradorligini oshirish, tahlil qilish va amaliyotga joriy etish bugungi kunning muhim vazifalaridan biridir. Ta'lim oluvchilarning fikr doirasi, ongi, dunyoqarashlarini o'stirish, ularni erkin tinglovchidan erkin ishtirokchiga aylantirmoq nihoyatda muhimdir. Pedagog darsda boshqaruvchi o'rganuvchilar esa, ishtirokchiga aylanmog'i lozim. Ana shu vazifani uddalashda innovatsion faoliyat ustunligi ko'p qirrali samara keltiradi[2]

Innovatsion texnologiyalardan dars jarayonida foydalanishning o'ziga xosligi shundaki, ular pedagog va ta'lim oluvchilarning birgalikdagi faoliyati orqali amalga oshiriladi. O'qitish jarayoni o'rgatuvchi hamda o'rganuvchi faoliyatini o'z ichiga oladi. O'rgatuvchi faoliyati o'quv materialini bayon qilish, o'rganuvchlarning fanga bo'lgan qiziqishini orttirish, fikrini teranlashtirish va e'tiqodini shakllantirish, ta'lim oluvchilarning mustaqil mashg'ulotlariga rahbarlik qilish, ularning bilim, ko'nikma va malakalarini tekshirish hamda baholashdan iborat.

1 . Sayibova .Y.Z INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNING TA'LIM SOHASIDAGI O'RNI. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences.

2. Azizxujayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik maxorat. T.:TDPU, 2003.

3. Ishmuxamedov R.J. Innovasion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yullari. T.: TDPU, 2004.

TADQIQOD METODOLOGIYASI

Maktabgacha ta'limda innovatsion texnologiyalardan foydalanish bolalarning rivojlanishiga yordam beradigan, o'yinlar orqali bilim beradigan zamonaviy usullarni o'z ichiga oladi, bu esa ta'limni qiziqarli, samarali qiladi va ularning kelajakda o'qishiga ,mustaqil izlanishga bo'lgan qiziqishini yanada oshiradi.

Maktabgacha ta'limda qo'llaniladigan innovatsion texnologiyalar qatoriga quyidagilar kiradi:

- O'yin texnologiyalari: SMART-taxtalar, planshetlar orqali interaktiv o'yinlar va dasturlar, bolalarning qiziqishini uyg'otadi.

- Raqamli vositalar: Bolalar uchun maxsus ishlab chiqilgan mobil ilovalar, video darslar, animatsiyalar.



- "STEAM" (Ilm, Texnologiya, Muhandislik, San'at, Matematika) yondashuvi: Loyihalar, tadqiqotlar orqali bolalarning ijodiy va tanqidiy fikrlashini rivojlantirish.

- Virtual va qo'shimcha haqiqat (VR/AR): Turli olamlarga sayohat qilish, ob'ektlarni 3D ko'rish imkonini berish.

- Robototexnika: Oddiy robotlarni yig'ish va dasturlash orqali mantiqiy fikrlashni o'rgatish

TAHLIL VA NATIJALAR

Maktabgacha ta'lim har bir bolaning kelgusi hayotdagi muvaffaqiyatli rivojlanishi uchun asosiy bosqichdir. Bu davrda bolalar nafaqat atrof-muhitni bilib oladilar, balki intellektual, ijtimoiy va emosional ko'nikmalarni shakllantiradilar.

Innovatsion faoliyatni ta'lim jarayoniga tatbiq etish esa bolalarning qiziqishini uyg'otish, ularning bilimlarni mustaqil o'zlashtirishga bo'lgan layoqatini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Ammo, afsuski, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida innovatsion yondashuvlarni to'liq joriy etishda ko'plab muammolar mavjud.

Innovatsion faoliyatni joriy etishdagi muammolardan biri pedagog kadrlarning malaka darajasi bilan bog'liqdir. Ko'plab tarbiyachilar zamonaviy texnologiyalarni o'zlashtirish uchun zarur bilim va ko'nikmalarga ega emas. Natijada, innovatsion metodlarni qo'llash qiyinlashadi va an'anaviy usullar bilan chegaralanib qolishadi.

Ikkinchi katta muammo moliyaviy resurslarning yetishmasligidir. Maktabgachata'lim tashkilotlari innovatsion texnologiyalarni sotib olish, yangi o'quv dasturlarini ishlab chiqish yoki xodimlarni malakasini oshirish uchun ko'p hollarda mablag' yetishmasligidan aziyat chekadi. Bu esa ta'lim jarayonini yangilashga salbiy ta'sir qiladi. Bundan tashqari, infratuzilma va texnik jihozlarning yetarli emasligi ham innovatsion faoliyatni to'liq amalga oshirishga to'sqinlik qiladi. Ko'plab tashkilotlar hali ham eskirgan uskunalardan foydalanmoqda yoki texnologik infratuzilma umuman mavjud emas.

Shuningdek, ota-onalar va jamiyatning innovatsiyalarga nisbatan ishonchsizlik yoki qiziqmasligi ham yangi usullarning qabul qilinishini sekinlashtiradi. Bu muammolarni hal qilish uchun bir nechta yechimlar taklif etish mumkin. Avvalo, pedagoglarning malakasini oshirishga qaratilgan o'quv dasturlarini tashkil qilish zarur. Bundan tashqari, davlat va nodavlat sektorlar o'rtasida hamkorlikni kuchaytirish, xayriya fondlari va grantlardan foydalanish orqali moliyaviy resurslarni kengaytirish mumkin. Shuningdek, arzon va mahalliy sharoitga mos



innovatsion yechimlarni qidirib topish orqali infratuzilmani yaxshilash mumkin.

Innovatsion faoliyatning ahamiyati va mavjud muammolar.

Innovatsion faoliyat –bu yangiliklarni yaratish, sinovdan o'tkazish va amaliyotga joriy qilish jarayonidir. Maktabgacha ta'limda bu, asosan, o'yin texnologiyalari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT), STEAM (fan, texnologiya, muhandislik, san'at va matematika) yondashuvlari kabi usullarni qo'llash orqali amalga oshiriladi.

Biroq, ushbu faoliyatni joriy qilishda qator muammolar uchraydi. Avvalo, pedagoglarning malakasi yetarli darajada emas. Ko'plab tarbiyachilar zamonaviy yondashuvlardan foydalanishni bilishmaydi yoki ularga qo'llanilayotgan texnologiyalar bilan ishlash bo'yicha yetarli bilim berilmagan. Bu esa innovatsion faoliyatni amalga oshirishga to'siq bo'lmoqda. Yana bir dolzarb muammo –moliyaviy resurslarning yetishmasligi. Innovatsion vositalar, masalan, interfaol doskalar, o'yin platformalari yoki AKT qurilmalari katta xarajat talab qiladi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida esa mablag'ning cheklanganligi sababli, bu kabi texnologiyalarni joriy etish imkoniyatlari cheklangan. Infratuzilma va jamiyatdagi qarashlar. Bundan tashqari, ko'plab maktabgacha ta'lim tashkilotlarida texnik infratuzilma yetarli emas. Bolalar bog'chalarining ko'pchiligida kerakli jihozlar eskirgan yoki mavjud emas. Innovatsion texnologiyalarni tatbiq etish uchun zarur bo'lgan qulay muhit yo'q. Ota-onalar va jamiyatning yangi texnologiyalarga nisbatan qarshiligi yoki e'tiborsizligi ham muhim muammolardan biridir. Ba'zi ota-onalar an'anaviy ta'lim usullarini afzal ko'radilar va yangi yondashuvlarni qabul qilishga shubha bilan qaraydilar. Innovatsion faoliyatning muvaffaqiyati ko'p jihatdan pedagoglarning malaka darajasiga bog'liq. Ko'plab maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyachilar zamonaviy pedagogik yondashuvlarni yetarlicha bilmasligi, innovatsion texnologiyalar bilan ishlash ko'nikmasiga ega emasligi kuzatiladi. Tarbiyachilarning professional rivojlanishi uchun doimiy ravishda trening va seminarlar tashkil etilmagan. Bundan tashqari, ba'zi hollarda kadrlar yangi usullarni o'zlashtirishga qiziqmasligi yoki ularga qarshilik ko'rsatishi ham jarayonni sekinlashtiradi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida innovatsiyalarni joriy etish uchun moliyaviy manbalar cheklangan. Bu jarayon yangi o'quv materiallarini ishlab chiqish, zamonaviy texnologiyalarni sotib olish, tarbiyachilar malakasini oshirish kabi harakatlarni o'z ichiga oladi. Davlat tomonidan ajratilgan mablag'lar ba'zan bu talablarni qondirish uchun yetarli emas.

Muammolarni hal etish yo'llari.



Ushbu muammolarni bartaraf etish uchun bir nechta chora-tadbirlarni amalga oshirish zarur:

1. Pedagoglarning malakasini oshirish uchun davlat va nodavlat sektor o'rtasida hamkorlikda treninglar, seminarlar va master-klasslar tashkil etish

2. Innovatsion faoliyatni qo'llab-quvvatlash uchun xalqaro va mahalliy grantlarni jalb qilish, xususiy sektorning sarmoyalarini kengaytirish.

3. Tashkilotlarni zamonaviy texnologik vositalar bilan ta'minlash va ulardan samarali foydalanish uchun infratuzilmani rivojlantirish.

4. Ota-onalar va jamiyat a'zolari o'rtasida innovatsion yondashuvlarning afzalliklarini targ'ib qilish va ular bilan muntazam hamkorlik o'rnatish.

XULOSA

Innovatsion texnologiyalar – bu bolalarning tabiiy ehtiyojlariga asoslangan, ularning mustaqil fikrlash qobiliyatini shakllantiradigan, diqqatini bir joyga jamlab mustaqil qaror qabul qilishga undaydigan eng samarali texnologiyalardan biri hisoblanadi. Maktabgacha ta'limda innovatsion texnologiyalarni qo'llash orqali ta'lim sifatini oshirishga, bolalarning qiziqishlarini uyg'otishga, mustaqil izlanuvchanlik qobiliyatlarini shakllantirishga turtki bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-martdagi PQ-5032-sonli

qarori – "Raqamli ta'lim tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida".

2. "Maktabgacha ta'lim to'g'risida"gi Qonun, 2020-yil.

3. Mahmudova D.X. Innovatsion texnologiyalar asosida maktabgacha ta'limni

tashkil etish. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2022.

4. Nurmatova L.B. Bolalar bog'chasida raqamli texnologiyalar asosida mashg'ulotlar olib borish metodikasi. – Samarqand: Samarqand universiteti, 2023

5. Sayibova .Y.Z. INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNING TA'LIM SOHASIDAGI O'RN. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences.

6. Azizxujayeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik maxorat. T.: TDPU, 2003.

7. Ishmuxamedov R.J. Innovatsion texnologiyalar yordamida ta'lim samaradorligini oshirish yullari. T.: TDPU, 2004.